

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYA VAZIRLIGI

ADCHTI IFOMT fakulteti

Xitoy tili filologiya yo'nalishi

101-guruh talabasi **Rahmonova Mohira**

Ilmiy rahbar: **Zaynobiddinova I**

Annotatsiya: Arab tilshunosligi — arab tili va uning turli lahjalari, tarixiy rivoji, grammatik tuzilishi, fonetikasi, leksikasi hamda adabiy tili (fusha)ni o'rganadigan ilmiy yo'nalishdir. Ushbu soha arab tilining qadimiy manbalari va zamonaviy qo'llanilishini ilmiy asosda tahlil qiladi.

Tayanch so'zlar: Arab tili fonetikasi, undosh tovushlar, fusha va ammiya.

Аннотация: Арабское языкознание — это научное направление, изучающее арабский язык, его различные диалекты, историческое развитие, грамматическую структуру, фонетику, лексику и литературную форму (фусха). Оно также научно анализирует древние источники арабского языка и его современное употребление..

Ключевые слова: Арабская фонетика, согласные звуки, фусха и аммия.

Absbtract: Arabic linguistics is a scientific field that studies the Arabic language, its various dialects, historical development, grammatical structure, phonetics, lexicon, and literary form (fusha). It also scientifically analyzes the ancient sources of the Arabic language and its modern usage.

Key words: Arabic phonetics, consonant sounds, fusha, and ammiya.

VII-VIII asrlarda Araviya hududida va arablar tomonidan bosib olingan qator mamlakatlarda Old Osiyo, Shimoliy Amerika hamda Pireney yarim orolida "Jahon miqyosidagi mamlakat Arab xalifaligi" tashkil topdi. Arab xalifaligi islom diniga asoslangan ko'p millatli davlat bo'lib, xalifatda ish uritish vositasi va fan tili arab tili hisoblangan. Arab xalifaligida tilshunoslikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, Hindistondagi kabi amaliy ehtiyojlar bilan bog'lanadi, ya'ni bu davrda eski yodgorliklar va Qur'on tili bilan jonli arab tili (shevalari) orasida katta farqlanish yuzaga keladi. Bir tomondan, musulmon dunyosining muqaddas diniy kitobi bo'lgan Qur'onni tushunarli qilish, undagi so'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilish, ikkinchi tomondan, klassik arab tilini shevalar ta'siridan saqlash maqsadida arab olimlari til masalalari bilan jiddiy shug'ullanishga kirishdilar.

Arab tilshunosligi o'z taraqqiyoti davrida hind va yunon tilshunosligi yutuqlariga, o'z an'analariga tanqidiy va ijobiy yondashgan. Arablar o'z tillarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda undan foydalanganlar. VII-VIII asr arab tilshunosligining dastlabki markazlari Iroqning Basra va Kufa shaharlari hisoblangan. Basra va Kufa shaharlarida ikkita lisoniy maktab tashkil topgan bo'lib, ular o'rtasida tilshunoslikning ko'pgina masalalari yuzasidan «fikrlar jangi», qizg'in bahslar, munozaralar olib borilgan. Ushbu lisoniy munozaralar tilshunoslik fanining markazi Arab xalifaligining poytaxti bo'lgan Bag'dod shahriga ko'chirilganidan so'ng to'xtagan.

Arab tilshunosligining asoschilaridan biri Basra grammatika maktabining vakili Xalil al - Farohidiy (taxminan 718-791-y) arab tilining ilk (dastlabki) lug'atini yaratdi. U lug'atni «Kitobul ayn» («Ayn harfi kitobi») deb nomlab, unda grammatikaga oid muhim fikrlarni bayon etdi. Shuningdek, olim

«Kitobul avomil» («Boshqaruvchilar kitobi») nomli asarni ham yozdi. Ammo bu asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Xalil al-Farohidiyning shogirdi, mashhur arab tilshunosi, kelib chiqishiga ko'ra fors basralik Amir bin Usmon Sibavayxiy (733-yilda vafot etgan) o'zining salmoqli "Al-kitob" asarini yaratdi. Muallif ushbu asarda o'zigacha bo'lgan barcha tadqiqotchilarning ta'limotlarini, fikrlarini, qarashlarini umumlashtiradi. U arab tili grammatikasining tugal va mukammal ko'rinishini taqdim etadi. Ushbu asar har ikkala: Basra va Kufa maktabi vakillari tomonidan bir xilda yuqori baholangan va qadrlangan.

Kelib chiqishiga ko'ra yunon Abu-Abayda (770-837) noyob so'z va ibora, ifodalarning keng qamrovli lug'atini tuzadi. Bog'dodlik hind

Sag'ani (1181-1252) 20 tomlik lug'at yaratadi va uni «To'lqinlar toshqini» deb nomlaydi. Misrlik ibn

Mansur (1232-1311) katta hajmdagi salmoqli lug'at tuzib, uni «Arab tili» deb ataydi. Sherozlik fors Feruzobodiy (1329-1414) 60 tomlik lug'at tuzgan va uni «Qomus» (okean) deb nomlagan. Bundan keyin yaratilgan ko'plab lug'atlar ham «Qomus» nomi bilan ataladigan bo'lgan. Arab leksikografiyasi Sharq va Eron, Turkiya, qisman hind xalqlariga ham, Yevropa xalqlariga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan, keltirilgan asarlardan ma'lum bo'ldiki, arab tilshunoslari leksikografiyaga alohida, jiddiy ahamiyat berganlar. Shuning uchun arab tilshunosligida leksikografik tadqiqotlar muhim o'rinni egallaydi. Arab leksikograflari ayrim predmetlarni anglatadigan sinonimlar lug'atini, masalan, qilichni anglatadigan 500 ta so'z va iboradan, arslonni anglatadigan 500 ta, tusni

ifoda etadigan 400 ta soʻz va iboradan tashkil topgan koʻplab turli mavzudagi lugʻatlarni tuzganlar. Demak, arab tilshunoslari leksikografiya sohasida juda katta yutuqlarga erishganlar.

Xullas, arab leksikografiyasida lugʻatlar mazmuniga koʻra olti guruhga boʻlinadi: 1. Toʻliq izohli lugʻatlar. 2. Predmet lugʻatlari (masalan, hayvonlar bilan bogʻliq lugʻatlar va b). 3. Sinonimlar lugʻati. 4. Noyob soʻzlar lugʻati. 5. Oʻzlashgan soʻzlar lugʻati. 6. Tarjima lugʻatlari.

Arab tilida oʻzak 3 (baʼzan 4) undoshdan iborat boʻlib, soʻz va soʻz formalarini yasash paytida bu undoshlar orasidagi unli tovushlar oʻzgartiriladi (kitob, kotib, kutub). Soʻzning bunday tuzilishi fleksiya (egilish) haqidagi taʼlimotni yaratishga olib keldi. Shunga koʻra, arab - yahudiy filologiyasida oʻzak, soʻz yasovchi elementlar tushunchasi bilan birga fleksiya haqidagi tushuncha ham paydo boʻldi. Arablar, hindlar kabi, tovushlarni akustik va fiziologik belgilariga koʻra farqlaganlar. Nutq aʼzolari sifatida ogʻiz boʻshligʻi, burun boʻshligʻi va boʻgʻiz hisoblangan. Nutq tovushlarini hosil qilishda boʻgʻiz, til, tanglay, milk, tish, lab xizmat qilishi taʼkidlangan.

Arab tilshunosligida sintaksis masalalari, hind va yunonlardagidek, grammatikaning eng boʻsh boʻlimi hisoblangan. Shunga qaramasdan arablarda sintaksisning tekshirish obyekti sifatida gap, gapning struktur- semantik tahlili kuzatiladi. Ular gapning kamida ikki soʻzdan - ikki otdan yoki ot va feʼldan iborat boʻlishini, bu soʻzlar oʻrtasidagi subyekt - predikat munosabatining oʻrganilishini toʻgʻri taʼkidlaydilar. Gaplarning tuzilishiga koʻra otli, feʼlli va holli turlarga boʻlinishini qayd etdilar. Otli gaplarning ot soʻzdan boshlanishini (masalan, Zayd turibdi), feʼlli gaplarning esa feʼl soʻzdan (masalan, turgan Zayd) boshlanishini aytadilar.

Arab grammatikasining morfologiya qismi Sibavayxiy asarida puxta ishlab chiqilgan. Aniqrogʻi, u morfologiyaga oid quyidagi masalalarni tadqiq qiladi:

1. Soʻz turkumi.
2. Oʻzakning tuzilishi.
3. Ot va uning tasnifi.
4. Feʼl va uning shakllari va boshqalar.

Arab tilshunoslarining tadqiqotlarida feʼl markaziy oʻrinlardan birini egallaydi. Sibavayxiy oʻz ishlarida feʼlning qator grammatik kategoriyalari: oʻtimlilik, oʻtimsizlik, nisbat, shaxs, son va boshqalarni qayd etadi. Feʼllarni tuzilishiga koʻra tub va yasama feʼllarga ajratadi. Arablarda sonlar birliklar, oʻnliklar, yuzliklar va mingliklarga boʻlinadi. Olmoshlarning kishilik va oʻzlik olmoshi kabi turlari qayd etiladi, ularning (masalan, kishilik

olmoshlarining uch shaxsi: man, san, o‘z, biz, siz, ular) kabi ichki turlari ham beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy tilshunoslik, Rasulov R. - Toshkent, Oltin kitob, 2022, 32-35-betlar.
2. Umumiy tilshunoslik, Musayev A. -Toshnekt.
3. arxiv.uz - Arab tilshunosligi.
4. wikipedia - Qadimgi arab tilshunosligi.

